



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlanitirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerlarni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

sharoitida asalarilar oilasining sog‘lig‘ini saqlashning bir usuli deb hisoblaydi. V.V tomonidan olib borilgan. Yagin, O.S. Gladisheva, D.A. Xomutov (2013) og‘ir metallarning asalarilarning oziq-ovqat mobilizatsiyasiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlari asalarichilik mahsulotlariga metallarning kirib kelishini oldini olish uchun asalarilarning og‘ir metallarning past konsentratsiyalik tuzlari mavjudligini farqlash qobiliyatini ko‘rsatadi. Mualliflarning fikricha, sezgir ta’im reaksiyasi natijasida asalarilar HM tuzlarining past konsentratsiyasida qochish reaksiyasini ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa va takliflar Mintaqaviy asalarichilik ekotizimini rivojlantirish uchun tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ilmiy yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish zarur. Bu nafaqat asal ishlab chiqarishni oshiradi, balki umumiy ekologik barqarorlik va qishloq xo‘jaligi samaradorligini ham yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNEP, 2021, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, <http://www.unep.org/greenconomy>
2. Qodirov, Farrux, and Xudayar Muhitdinov. "Features that increase efficiency in the provision of medical services and factors affecting them." *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* 2.7 (2022): 192-199.
3. Askarov N. Respublikada asalarichilik tarmog‘ini rivojlantirish // Amaliy qo‘llanma. “NEW-STYLE STAR” MChJ, @ QXI ITI, 2017 yil, 51 bet.
4. Farmanov, J. Z., Rimboyeva, N. X. qizi, & Rimbayeva, G. X. qizi. (2023). Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishda xorij tajribasidan foydalanish. *Golden brain*, 1(1), 231–236. Retrieved from

UDK:338.43

**JANUBIY IQTISODIY RAYONDA QISHLOQ XO‘JALIGI ORXONLARINING
TARKIBIY O‘ZGARISHI VA AGRAR KOOPERATSIYANI RIVOJLANTIRISH
YO‘NALISHLARI**

**СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ
И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ АГРАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЮЖНОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ РЕГИОНЕ.**

**STRUCTURAL CHANGES OF AGRICULTURAL ORGANIZATIONS AND DIRECTIONS
FOR DEVELOPMENT OF AGRARIAN COOPERATION IN THE SOUTHERN
ECONOMIC REGION**

Qurbonov A.B.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, professori

Annotatsiya

Maqolada Janubiy iqtisodiy rayon Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va boshqa toifa xo‘jaliklarining ulushi yillar kesimida tahlil qilingan. Tadqiqotda agrar mulkchilik shakllarining rivojlanishi, fermer va dehqon xo‘jaliklarining ishlab chiqarishdagi roli, boshqa toifa xo‘jaliklarining o‘sib borishi hamda kooperatsiya asosida xo‘jalik subyektlarini o‘zaro bog‘lash masalalari ilmiy jihatdan asoslangan

Kalit so‘zlar: Janubiy iqtisodiy rayon, Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, agrar mulkchilik.

В статье в разрезе лет проанализирована доля фермерских хозяйств, дехканских хозяйств и хозяйств других категорий в производстве сельскохозяйственной продукции в Южном

экономическом районе Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях. В исследовании научно обоснованы вопросы развития форм аграрной собственности, роли фермерских и деханских хозяйств в производстве, роста хозяйств других категорий, а также взаимосвязи хозяйствующих субъектов на основе кооперации.

Ключевые слова: Южный экономический район, Кашкадарьинская область, Сурхандарьинская область, фермерское хозяйство, деханское хозяйство.

The article analyzes, by year, the share of farms, dehqan farms, and other categories of farms in the production of agricultural products in the Southern Economic Region Kashkadarya and Surkhondarya regions. The study provides a scientific justification for the development of forms of agrarian ownership, the role of farms and dehqan farms in production, the growth of other categories of farms, and the interconnection of economic entities on the basis of cooperation.

Keywords: Southern Economic Region, Kashkadarya region, Surkhondarya region, farm, dehqan farm, agrarian ownership, cooperation.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, sanoatni xomashyo bilan uzluksiz ta‘minlash, qishloq aholisi bandligi va daromadini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, mamlakatning Janubiy iqtisodiy rayoni hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari agrar salohiyati, tabiiy-iqlim sharoiti, mehnat resurslari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu hududlarda paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, polizchilik va qayta ishlash tarmoqlari o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari tarkibiy o‘zgarishini tahlil qilish, fermer va dehqon xo‘jaliklarining hududiy rolini baholash hamda agrar mulkchilikni rivojlantirishda kooperatsiya mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari uchun alohida kooperatsiya yo‘nalishlari ishlab chiqiladi.

Tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, u kapital, mehnat, yer va axborot resurslarini muayyan maqsad sari birlashtirish orqali foyda va ijtimoiy naf yaratishga xizmat qiladi. Ilmiy yondashuvlarda tadbirkorlik bir tomondan mustaqil iqtisodiy faoliyat, ikkinchi tomondan yangi kombinatsiyalar va innovatsiyalar asosida yuqori samaradorlikka erishish jarayoni sifatida talqin etiladi. Agrar tadbirkorlik esa ushbu umumiy belgilar bilan birga yer munosabatlari, suv ta‘minoti, hosildorlik, mavsumiy mehnat va biologik omillar bilan bog‘liqligi sababli murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi.

1-jadval ma‘lumotlari 2010–2025 yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo‘jaliklari ulushi barcha taqqoslanayotgan hududlarda pasayganini ko‘rsatadi. Respublika bo‘yicha pasayish 3,5 foiz punktni tashkil etgan bo‘lsa, Qashqadaryo viloyatida 8,2 foiz punkt, Surxondaryo viloyatida esa 15,1 foiz punktga teng bo‘lgan. Demak, fermer xo‘jaliklari ulushining eng keskin qisqarishi Surxondaryo viloyatida kuzatilgan.

Dehqon xo‘jaliklari bo‘yicha holat bir xil emas. Respublika bo‘yicha dehqon xo‘jaliklari ulushi 39,4 foizdan 36,9 foizga pasaygan bo‘lsa, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ushbu ko‘rsatkich o‘sgan. Qashqadaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklari ulushi 28,4 foizdan 31,7 foizgacha, Surxondaryo viloyatida esa 39,0 foizdan 50,3 foizgacha oshgan. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy subyektlaridan biriga aylangan. Boshqa toifa xo‘jaliklari ulushining o‘ssishi agrar mulkchilik tizimida diversifikatsiya jarayoni kuchayganini anglatadi. 2010 yilda bu toifa ulushi Qashqadaryoda 0,6 foiz, Surxondaryoda 0,7 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilda tegishli ravishda 5,5 va 4,5 foizga yetgan. Ushbu o‘ssish agrofirmalar, klasterlar, qayta ishlash korxonalari, xususiy agroservis subyektlari va boshqa tashkiliy shakllar ulushi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

1-jadval. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi, foizda

Hududlar va xo‘jalik toifalari	2010	2015	2020	2025	2010–2025 yillarda o‘zgarish, f.p.
Fermer xo‘jaliklarida					
O‘zbekiston Respublikasi	59,1	52,0	52,0	55,6	-3,5
Qashqadaryo viloyati	71,0	61,8	60,0	62,8	-8,2
Surxondaryo viloyati	60,3	41,7	43,8	45,2	-15,1
Dehqon xo‘jaliklarida					
O‘zbekiston Respublikasi	39,4	46,2	42,3	36,9	-2,5
Qashqadaryo viloyati	28,4	37,2	34,8	31,7	+3,3
Surxondaryo viloyati	39,0	57,2	49,3	50,3	+11,3
Boshqa toifa xo‘jaliklarida					
O‘zbekiston Respublikasi	1,5	1,8	5,7	7,5	+6,0
Qashqadaryo viloyati	0,6	1,0	5,2	5,5	+4,9
Surxondaryo viloyati	0,7	1,1	6,9	4,5	+3,8

Qashqadaryo va Surxondaryo ko‘rsatkichlari asosida hisoblangan Janubiy iqtisodiy rayon o‘rtacha ma’lumotlari mintaqada fermer xo‘jaliklari ulushi 2010 yilda 65,65 foizdan 2025 yilda 54,0 foizgacha tushganini ko‘rsatadi. Dehqon xo‘jaliklari ulushi esa 33,7 foizdan 41,0 foizgacha oshgan. Boshqa toifa xo‘jaliklari 0,65 foizdan 5,0 foizgacha o‘sgan. Bunday tarkibiy siljishlar mintaqada fermer, dehqon va boshqa xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval. Janubiy iqtisodiy rayonda xo‘jalik toifalarining o‘rtacha ulushi, foizda

Xo‘jalik toifasi	2010	2015	2020	2025	2010–2025 yillarda o‘zgarish, f.p.
Fermer xo‘jaliklari	65,65	51,75	51,90	54,00	-11,65
Dehqon xo‘jaliklari	33,70	47,20	42,05	41,00	+7,30
Boshqa toifa xo‘jaliklari	0,65	1,05	6,05	5,00	+4,35

Qashqadaryo viloyati Janubiy iqtisodiy rayonning yirik agrar hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, bog‘dorchilik va sabzavotchilik qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Tahlil ma’lumotlariga ko‘ra, 2010 yilda viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida fermer xo‘jaliklarining ulushi 71,0 foizni tashkil etgan. 2025 yilda bu ko‘rsatkich 62,8 foizga tushgan bo‘lsa-da, respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori darajada saqlanib qolgan.

Bu holat Qashqadaryo viloyatida fermer xo‘jaliklari hanuz asosiy tovar mahsulot ishlab chiqaruvchi subyekt ekanini anglatadi. Biroq fermer xo‘jaliklari ulushining 8,2 foiz punktga

kamayishi agrar tarkibda boshqa subyektlarning ham faollashayotganini ko‘rsatadi. Dehqon xo‘jaliklari ulushi 2010 yilda 28,4 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilda 31,7 foizga yetgan. Boshqa toifa xo‘jaliklari ulushi esa 0,6 foizdan 5,5 foizgacha oshgan.

Qashqadaryo viloyati sharoitida fermer xo‘jaliklari uchun asosiy muammolardan biri mahsulotni faqat xomashyo sifatida sotishga qaramlikdir. Agar fermer o‘z mahsulotini qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va bozorga chiqarish bosqichlarida ishtirok etmasa, qo‘shimcha qiymatning katta qismi boshqa subyektlar ixtiyorida qoladi. Shu sababli fermer xo‘jaliklarini kooperatsiya asosida qiymat zanjiriga chuqurroq jalb etish zarur.

Qashqadaryo viloyati uchun fermer-kooperativ modelning mohiyati shundan iboratki, fermerlar yerdan foydalanish va mahsulot yetishtirishda mustaqil subyekt sifatida qoladi, lekin texnika, agrokimyo, suv tejovchi texnologiya, ombor, qayta ishlash va sotish xizmatlaridan umumiy tizim orqali foydalanadi. Bu model tannarxni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish, yo‘qotishlarni qisqartirish va bozordagi savdolashuv kuchini mustahkamlash

Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi Qashqadaryo viloyatidan farq qiladi. 2010 yilda Surxondaryoda fermer xo‘jaliklari ulushi 60,3 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 45,2 foizgacha pasaygan. Bu 15,1 foiz punktik kamayishni anglatadi. Mazkur holat viloyatda agrar ishlab chiqarishning fermerlardan dehqon xo‘jaliklari va boshqa subyektlar tomoniga ma‘lum darajada siljiganini ko‘rsatadi.

Surxondaryo viloyatida bunday tarkibiy holat meva-sabzavotchilik, polizchilik, chorvachilik va tomorqa mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Dehqon xo‘jaliklari mayda yer uchastkalarida mehnat sig‘imli mahsulotlar yetishtirish, ichki bozorga tezkor mahsulot yetkazib berish va oilaviy daromadni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq ularning maydaligi, texnika va saqlash infratuzilmasi cheklanganligi, bozor axboroti va sotish kanallariga kirishdagi qiyinchiliklari ularning samaradorligini cheklab qo‘yadi.

Surxondaryo uchun dehqon-kooperativ model tomorqa mahsulotlarini yig‘ish markazlari, saralash-qadoqlash punktlari, kichik qayta ishlash sexlari, sovitkich omborlari, chorvachilik mahsulotlarini tayyorlash markazlari va marketing xizmatlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu model, ayniqsa, ayollar va yoshlar agrotadbirkorligini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Agrar kooperatsiyada qiymat zanjiri yondashuvi muhim hisoblanadi. Bu yondashuvda mahsulot yetishtirish, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, tashish, sotish va eksport qilish yagona iqtisodiy tizim sifatida qaraladi. Qashqadaryo viloyatida paxta, g‘alla, chorvachilik va bog‘dorchilik mahsulotlari bo‘yicha; Surxondaryo viloyatida esa meva-sabzavot, poliz, tomorqa va chorva mahsulotlari bo‘yicha kooperativ qiymat zanjirlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining tarkibiy o‘zgarishi hududiy farqlar asosida baholandi va Qashqadaryo hamda Surxondaryo viloyatlari uchun farqlangan kooperatsiya modellari asoslandi. Qashqadaryo viloyatida fermer xo‘jaliklari ulushining yuqoriligi fermer-kooperativ modelni, Surxondaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklari ulushining ustuvorligi esa dehqon-kooperativ modelni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi:

birinchidan: Janubiy iqtisodiy rayonda agrar kooperatsiya strategiyasi hududlar bo‘yicha alohida ishlab chiqilishi lozim. Qashqadaryoda fermer xo‘jaliklari asosida texnika, qayta ishlash, ombor, logistika va eksport xizmatlarini birlashtiruvchi kooperativlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Surxondaryoda esa dehqon xo‘jaliklarini tomorqa mahsulotlarini yig‘ish, saralash, qadoqlash, saqlash va sotish kooperativlariga birlashtirish zarur.

ikkinchidan: fermer va dehqon xo‘jaliklarini qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga jalb etish kerak. Buning uchun qayta ishlash korxonalari va klasterlar bilan shartnomaviy munosabatlarda adolatli narx, kafolatlangan xarid, xizmat ko‘rsatish majburiyatlari va qo‘shimcha qiymatdan ulush olish mexanizmlari belgilanishi lozim.

uchinchidan: boshqa toifa xo‘jaliklari ulushining o‘shishini fermer va dehqon xo‘jaliklari bilan integratsiyalashgan holda boshqarish zarur. Klasterlar va agrofimlar mayda ishlab chiqaruvchilarni bozordan siqib chiqaruvchi emas, balki ularga texnologiya, moliya, qayta ishlash va bozorga chiqish imkoniyatini taqdim etuvchi hamkor subyekt sifatida faoliyat yuritishi kerak.

to‘rtinchidan: kooperativlar uchun maxsus moliyaviy instrumentlar tizimi shakllantirilishi lozim. Bularga imtiyozli kredit, kafolat jamg‘armasi, lizing, investitsiya subsidiyasi, grantlar va eksport xarajatlarini qoplash mexanizmlari kiradi. Moliyaviy yordam kooperativning real natijalari bilan bog‘lanishi kerak.

beshinchidan: kooperativlarda raqamli boshqaruv va hisobdorlik tizimini joriy etish zarur. A’zolar ulushi, mahsulot miqdori, xizmatdan foydalanish hajmi, daromad va xarajatlar elektron platformada qayd etilsa, ishonch, shaffoflik va moliyaviy intizom kuchayadi. Bu kooperatsiyaning barqaror ishlashi uchun muhim shart hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatida esa dehqon xo‘jaliklari ulushi 2025 yilda 50,3 foizga yetgan. Bu holat oilaviy mehnat, tomorqa xo‘jaliklari va mayda ishlab chiqaruvchilarning qishloq xo‘jaligidagi roli yuqori ekanini anglatadi. Shuning uchun Surxondaryoda kooperatsiya mayda dehqon xo‘jaliklarini umumiy bozor, saqlash, qayta ishlash va sotish tizimi bilan bog‘lashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Boshqa toifa xo‘jaliklari ulushining o‘sishi agrar mulkchilik diversifikatsiyalashayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon klasterlar, qayta ishlash korxonalari, agrofimlar va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar roli ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq ushbu subyektlar fermer va dehqon xo‘jaliklari bilan adolatli kooperatsion munosabatlar asosida ishlashi lozim. Umuman, Janubiy iqtisodiy rayonda agrar kooperatsiyani rivojlantirish fermer, dehqon va boshqa toifa xo‘jaliklari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, qo‘shimcha qiymat yaratish, mahsulot yo‘qotishlarini kamaytirish, qishloq aholisi daromadini oshirish va hududiy agrotadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бусыгин А.В. Предпринимательство: основной курс. — М.: ИНФРА-М, 1997.
2. Герчикова И.Н. Менеджмент. — М.: ЮНИТИ, 2007.
3. Котлер Ф. Маркетинг менеджмент. — СПб.: Питер, 2007.
4. Русинов Ф.М. Возрождение предпринимательства в России. — Майкоп, 1999.
5. Kurbonov A.B., Shoxo‘jaeva Z.S. Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources // International Journal of Engineering and Advanced Technology. — 2019.